

GRAMMATIK VOSITALARDA “INSON” KONTSEPTINING VERBALLASHUVI

Umidjon Yigitaliyev, *Qo‘qon DPI dotsenti, PhD*
Nigoraxon Qaxramonova, *Qo‘qon DPI talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolda grammatik vositalar orqali “inson” kontseptning verbalashuvi assotsiativ aspektida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: grammatik vosita, kontsept, inson, verballashuv jarayoni, grammatik kategoriya, matn.

Til odamning muhim atributlaridan biridir. Bu inson o‘zini anglagandan beri tilni odamning hayvondan farqlovchi belgilaridan biri sifatida uqqanligi bilan isbotlanadi.

Mir Alisher Navoiy bu holatni “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida shunday sharhlaydi:

Ey so‘z ila qilgan ofarinish og‘oz // Insonni aroda aylagay mahrami roz

Chun kun faya kun sahfasiga bo‘ldi tiroz // Qilg‘on ani nutq ila baridin mumtoz.

O‘zbek tilida *inson* tushunchasini tadqiq etish bo‘yicha leksik-semasiologik va maydon aspektida [Iskandarova Sh, 1:24] hamda kontseptual [Yigitaliyev U, 2:17] jihatdan hozirgacha birqancha tadqiqotlar amalga oshirilganligi sir emas.

Hozirgi kunda jahon tilshunosligida kontseptual tadqiqotlarga [Sheina I, 3:60; Belyaeva E, 5:63] jiddiy e‘tibor berila boshlandi. Bu tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, lisoniy faktlarga sof lingvistik holda yondashmay, balki fanlar integratsiyasi, boshqacha aytganda, kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish orqali lisoniy hodisaning ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga e‘tibor beriladi. Tadqiqotchi e‘tibori ko‘proq lisoniy hodisalar o‘rtasidagi munosabatni yoritishga qartiladi.

Mazkur axborotda grammatik tizimining funktsional tomonida muayyan kontsept – “*inson*” ning ifodalanishini kognitiv aspektida tadqiq etish ko‘zda tutiladi.

Grammatik tizimda esa “*inson*” lisoniy kontsepti (LK – qisq.U.Y.)ning voqelanishi o‘ziga xos tabiatga ega. Chunonchi grammatik tizimda “*inson*” LKi yorqin ravishda egalik va shaxs-son qo‘shimchalarining birlik va ko‘plikdagi I va II shaxslarda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni: *kitobim, kitobing, kitobimiz, kitobingiz, shuningdek, o‘qidim, o‘qiding, o‘qidik, o‘qidingiz* kabilar.

Tabiiyki, bu grammatik kategorial shakllar grammemasida “inson” LKining mavjudligi bu grammatik shakllarning birinchi (I) va ikkinchi (II) shaxs kishilik olmoshlari bilan uzviy grammatik-geneologik aloqadorligi bilan xarakterlanadi. Nutq jarayonida uning bu olmoshlar va mazkur grammatik shakllar o‘ziga xos bir *pleonazmni* – qayta takrorlashni tashkil etadi: *Mening kitobim, Biz keldik* kabi nutqiy qurilmalarida (hosilalarida) “inson”, “shaxs” va “son” ma’nolarining ifodalanishida bu pleonazm yaqqol ko‘rinadi.

I, II shaxs egalik va shaxs-son qo‘shimchalarida “inson” LKi yorqin va barqaror tashkil etuvchidir. SHuning uchun bu shakllar odam bo‘lmagan narsa va predmetlarga (o‘simliklar, hayvonlar va h.k.) nisbatan qo‘llanilsa, personifikatsiya, jonlantirish, tashhis badiiy san’ati voqelanadi. CHunonchi:

*Qani ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag‘rimni ohang?
Nechuk kerak bo‘ldi, senga ko‘z yoshim,
Nechuk kerak, rubob, senga shuncha gam!* (A.Oripov), yoki
*Qatra qonlarkim tomar ko‘ksimga o‘rgan toshdin,
Zaxmdindur demakim, qon yig‘lar ahvolimga tosh.* (Alisher Navoiy), yohud
*Bunda qorning taglarida qish
Bahor uchun suylaydi olqish.* (Hamid Olimjon).

Shu grammatik shakllarning III shaxsida “inson” LKi mo‘‘tadil, neytraldir. YA’ni bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Va bu holat grammatik shaklning ma’nosi bilan emas, balki u qo‘llanilgan qurshovi bilan bog‘liq. Chunonchi, xalq shoiri E.Vohidovning:

Bu donish mahzanin so‘zlar

Menga afsona yangidan baytida jonlantirish – “xazina”ni so‘zlatish, gapirtirish “so‘zlamog‘” fe’lida yorqin ifodalangan “inson”LKining mavjudligi bilan bog‘liqdir.

“Inson” LKi yorqin ifodalangan morfologik vositalarning keng tarqalganlardan biri antropoindikator va shaxsiy munosabat qo‘shimchalaridir. Shuningdek, shaxs otlari va ismi foil yasovchi qo‘shimchalarda ham “inson” LKi yorqin voqelanish ko‘lamiga ega[Yigitaliyev U, 2:14]. Shuningdek, jamlovchi son yasovchi *-avlon, -ov, -ala* morfemalarida ham “inson” LKi ifodalangandir. Bu qo‘shimchalardan *-ov, -ovlon* kabilarida mazkur kontsept yaqqol (yorqin) ifodalangan bo‘lsa, *-ala* affiksining grammatik-funksional tomonida ularga nisbatan mo‘‘tadil mavqeda voqelanadi. Shuning uchun *-ov* va *-ala* jamlovchi son yasovchi qo‘shimchalari “inson” LKining ifodalanishiga yoki bu ma’noga nisbatan mo‘‘tadilligiga ko‘ra privativ oppozitsiyani (noto‘liq ziddiyatni) tashkil qiladi. Bu ziddiyatda *-ov* affiksi kuchli, belgili a’zoni, *-ala* qo‘shimchasi esa kuchsiz, mo‘‘tadil a’zoni tashkil etadi.

“Inson” LKi sintaktik sathda ham voqelanadi. Jumladan, so‘roq gaplarda “odam” LKi yorqin, barqaror belgi sifatida voqelanadi. Jumladan, so‘roq gaplar odamdan boshqa narsa, predmetga qaratilganda personifikatsiya (jonlantirish, tashhis) sodir bo‘ladi:

Ey, nomard tabiat, bormi senda his?! // Qaytadan baxt bersang, bo‘lmasmi unga. (A.Oripov).

His-hayajon gaplar grammemasida ham “inson” LKi voqelangan. Bu holatni quyidagi sintaktik qurilmalar semantik-funksional tomonida ko‘rishimiz mumkin: *Ex, ayb o‘zimda !* (M.Ismoilij, “Farg‘ona tong otguncha”). *Xay-xay, unday demang, aylanay !* (M.Ism.). *Faqat o‘zini o‘zi qiynamasa bas, faqat sog-salomat bo‘lsa bas ! Ox... Xaydar sog-omon bo‘lsa edi ! Qoyilman-ey, tilingiz aylanganiga !*(X.G‘.)

O‘zbek tilining nazariy sintaksisida matn ham asosiy yirik sintaktik birlik sifatida e‘tirof etilganligi bois, biz “inson” LKining mana shu birlikning grammatik-funksional tomonida voqelanishini tadqiq jarayoniga tortdik. Chunonchi, jahon adabiyotining faylasuf-yozuvchilaridan Mixail Bulgakovning “Usta va Margarita” romanidagi quyidagi matn va unda qo‘llangan qurilmalarning mazmun sathida to‘lig‘icha “inson” LKi voqelangan:

“SHu asnoda birdan bir stol uzra: MASSOLIT!”- degan sado parvoz etdi. Birdan , allakimdan qattiq musht egandek, jaz shalvirab, so‘ng gung bo‘lib qoldi. “ Nima , nima, nima bo‘pti , nima ?!!” – “Berlioz !!!” Odamlar o‘rinlaridan turib ketishdi, baqiriq-chaqiriqlar yangradi... Mixail Aleksandrovich haqidagi shumxabar hammani og‘ir qayg‘uga solib qo‘ygandi. Kimdir kuyib-pishib, hoziroq, shu erning o‘zida kollektiv nomidan qandaydir telegramma yozib, zudlik bilan jo‘natish kerak , deb chinqirardi”[Bulgakov M, 4:71].

Matnga e‘tibor beradigan bo‘lsak, unda “MASSOLIT”(Moskva shahar badiiy kengashi), *sado, allakim, qaygu, kuyib-pishib, shum xabarni etkazish, kollektiv, telegramma, jo‘natmoq, chinqirmoq, gung, baqiriq-chaqiriq* kabi lisoniy-nutqiy hosilalar uchraydi. Bu hosilalarning hammasi grammatik-funksional jihatdan “inson” ga ishora qilyapti. Bu holat bizga butun boshli matnda “inson” LKi voqelanganligini dalillashga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Iskandarov Sh.M. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): Filol.fanl.dokt. ... diss.avtoref. –T.,1999.

2. Yigitaliyev U.S. O‘zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar: Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. – T.,2020. – 54 b.

3. Шеина И.М. Концепт “человек” в русской и английской языковых картинах мира // Вестник РУДН, серия *Русский и иностранные языки и методика их преподавания*, 2011, № 3. –С. 60-68.

4. Bulgakov M. Usta va Margarita. Roman // К. Mirmuhammedov tarjiması. – Т.: Yosh gvardiya, 1987. –В.71-б.

5. Беляева Е.В. Репрезентация концепта “человек” в русском и китайском языках /Журнал: Филология и лингвистика в современном обществе: Материалы IV Межд.науч. конф. (г.Москва, июнь 2016 г.) –М.: БУКИ-ВЕДИ, 2016. –С. 63-65.

6. Yigitaliyev U.S. Grammatik shakllar vazifadosh qo‘llanishida butun-qism ma’nosining ifodalanishi (kelishik kategoriyasi misolida)// “Qo‘qon DPI ILMIY XABARLARI” jurnali. – Qo‘qon, 2022. 4-son. –В. 107-111.

7. Yigitaliyev U.S. Bir bosh bo‘lakli gaplar semantikasida “shaxs” aktantining ifodalanishi (stilistik aspect)// “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. –Toshkent,2022. 4-son. –В. 93-98. –В. 107-111.

8. <https://core.ac.uk/download/pdf/162464962.pdf>

7. <https://media.neliti.com/media/publications/343911-cognitive-analysis-of-morphological-phen-6cbde1c9.pdf>

8. <https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/download/1308/1212>

9. <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/hp/article/download/7241/4947>

10. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/788>